# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING BUYRUG‘I

**2022-yil “ 4 ”- aprel** **№ 106**

Toshkent sh.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari o‘rtasida Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli va 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 222-sonli qarori, Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda - TTA) Ilmiy Kengashining 2021-yil 24-noyabrdagi 4-sonli yig‘ilish qarori ijrosini ta’minlash hamda TTAda tahsil olayotgan qobiliyatli yoshlarni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va munosib taqdirlash maqsadida

## BUYURAMAN:

**1.** TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o‘rtasida “Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovini o‘tkazish va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) 1-ilovaga muvofiq va 2021/2022 o‘quv yili uchun Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsizlar bo‘yicha to‘lov miqdorlari va ular tayinlanadigan g‘oliblarning soni 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor J.K.Xakberdiyev, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.G‘aipov va Bosh buxgalter A.Sh.Yulchievlarga:

- har yili TTA xarajatlar smetasini tuzishda tasdiqlangan Nizomga muvofiq iqtidorli talabalarni taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish uchun zarur mablag‘lar nazarda tutilsin.

**3.** 2021/2022-o‘quv yili uchun Nizomda belgilangan Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovi joriy yilning 20-aprelidan 1-may kuniga qadar TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o‘rtasida o‘tkazilsin.

**4.** TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari orasidan Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendialar hamda turli nominatsiyalar g‘oliblarini aniqlash yuzasidan

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdıev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

**4.** TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari orasidan Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendialar hamda turli nominatsiyalar g‘oliblarini aniqlash yuzasidan tanlovlarni o‘tkazish uchun mas’ul etib Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i M.A.Xasanova va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikovalar belgilansin.

**5.** Barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

- TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o‘qituvchilari hamda bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar mazkur Nizom bilan tanishtirilsin.

**6.** TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari orasidan Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar g‘oliblarini aniqlash bo‘yicha maxsus tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Maxsus tanlov komissiyasi) tarkibi lavozimga ko‘ra 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**7.** Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i M.A.Xasanova va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikovalarga:

- TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o‘rtasida Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovi yakunlanganidan so‘ng unga oid ma’lumotlar 5 kun muddatda TTA rektoriga hisobot topshirilsin;

- TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o‘rtasida Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsilar tanlovi yakunlanganidan so‘ng Maxsus tanlov komissiyasi xulosasiga ko‘ra g‘olib deb topilgan talabalar bir hafta mobaynida Nizomda belgilangan tartib va miqdorda rag‘batlantirish to‘g‘risida buyruq loyihasi TTA rektoriga taqdim etilishi ta’minlansin.

**8.** Matbuot kotibi G.T.Mirzaevaga:

- Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar tanlovi jarayonlari va iqtidorli talablarning o‘z ma’naviy, kasbiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi yutuqlari ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida muntazam ravishda keng yoritib borilsin.

**9.** Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Rektor** **A.K.Shadmanov**

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

Toshkent tibbiyot akademiyasining
2022-yil “ 4 ”-aprel dagi
№ 106 -sonli burug‘iga 1-*ilova*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**“TASDIQLANDI”**
**Rektor ____________ A.K.Shadmanov**
**“____”-_____________ 2022-yil**

# Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovini o‘tkazish va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida
# NIZOM

Toshkent 2022-yil

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo'limi boshlig'i | **O.U.G'aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

**Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovini o'tkazish va ularni tayinlash tartibi to'g'risida**
**NIZOM**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-sonli va 2021-yil 9-sentyabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-6309-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 222-sonli qaroriga muvofiq Toshkent tibbyoit akademiyasida (keyingi o'rinlarda - TTA) tahsil olayotgan qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, TTA Ilmiy Kengashining 2021-yil 24-noyabrdagi 4-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun Sog'liqni saqlash vaziri, TTA rektori va tibbiyot sohasida faoliyat yuritgan atoqli olimlar nomidagi stipendiyalarni hamda turli nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantirishni taynlash tartibini belgilaydi.
Ushbu Nizom TTA Zulfiya nomidagi stipendiyasini tayinlash tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. **Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi** ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 86 ball va undan yuqori to'plagan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadiqot ishlarida ishtirok etayotgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, yo'nalishlar bo'yicha konferentsiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, TTAda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda hissa qo'shayotgan, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan 1 (bir) nafar TTAning bakalavriat bosqichining bitiruvchi kurs bo'lmagan 3-, 4- yoki 5-kurs talabasi hamda 1 (bir) nafar magistratura bosqichining bitiruvchi kurs bo'lmagan 1- yoki 2-kurs talabasiga tayinlanadi va to'lanadi.

**Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi** sovrindorlari tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patentiga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**TTA rektori stipendiyasi** ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 80 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, chet tilini bilish

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

tilini mukammal darajada va O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, yo‘nalishlar bo‘yicha konferentsiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, TTAda olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda hissa qo‘shayotgan, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan 1 (bir) nafar TTAning bakalavriat bosqichining bitiruvchi kurs bo‘lmagan 3-,4- yoki 5-kurs talabasi hamda 1 (bir) nafar magistratura bosqichining bitiruvchi kurs bo‘lmagan 1- yoki 2-kurs talabasiga tayinlanadi va to‘lanadi.

**TTA rektori** stipendiyasi sovrindorlarini tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patentiga ega bo‘lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Akademik Vosit Voxidovich Voxidov, Akademik Uktam Aripovich Aripov, Akademik Nabi Majidovich Majidov, Akademik Komiljon Ahmadjonovich Zufarov, Akademik Malika Samatovna Abdullaxo‘jaeva, Akademik Turg‘unpo‘lat Obidovich Daminov nomidagi stipendiyalar** (keyingi o‘rinlarda – **Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar**) ta’lim bosqichiga o‘qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 70 ball va undan yuqori bo‘lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O‘zbekiston tarixini yaxshi biladigan, munatazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, ushbu Nizomda nomlari ko‘rsatilgan akademiklar faoliyat yuritgan tor yo‘nalishlar bo‘yicha turli konferentsiya (tanlov)larda qantashib kelayotgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan, TTAda ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirayotgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 1-son davolash va 2-son davolash fakultetlari bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘lmagan 4-yoki 5-kursida tahsil olayotgan 3 (uch) nafardan talabasi, Tibbiy pedagogika va xalq tabobati hamda Xalqaro fakultetlar bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘lmagan 4-yoki 5-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafardan talabasi, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘lmagan 4- kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabasi, Menejment, tibbiy biologiya,biotibbiyot muhandisligi va oliy ma’lumotli hamshira fakulteti bakalavriat bosqichining bitiruvchi bo‘lmagan 3-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabasi hamda magistratura bosqichining bitiruvchi kurs bo‘lmagan 1-yoki 2-kursida tahsil olayotgan 1 (bir) nafar talabasiga tayinlanadi va to‘lanadi.

Mazkur Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar sovrindorlarini tanlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikat hamda kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**3. Erudit (bilmidon) nominatsiyasi** bo‘yicha ta’lim bosqichiga o‘qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 70 ball va undan yuqori bo‘lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan, davlat tilini mukammal

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, keng dunyoqarash va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, tashabbuskor, ilmiy-innovatsion izlanishlarni olib boradigan, yo'nalishlar bo'yicha turli konferentsiya (tanlov)larda faol qantashib kelayotgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, TTAda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirayotgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat bosqichining 3,4,5- yoki 6-kurs va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Erudit (bilmidon)** nominatsiyasi bo'yicha g'olibni aniqlashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Poliglot (ko'p til biluvchi) nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, ikki va undan ortiq chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini biladigan hamda ulardan birini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan, yo'nalishlar bo'yicha turli konferentsiya (tanlov)larda chet tilida ilmiy ma'ruzalar va/yoki poster-taqdimotlar bilan qantashib kelayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari to'g'risida xorijiy yoki mahalliy ilmiy jurnallarda chet tillarida maqola chop etgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Poliglot (ko'p til biluvchi) nominatsiyasi** bo'yicha g'olibni anqilashda jamoa tarkibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Biblioman (kitobxon) nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 70 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etayotgan, TTAda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga hissa qo'shayotgan, kitobxonlik tanlovlarida faol ishtirok etib kelayotgan, turli nashrlar muallifi va hammuallifi bo'lgan, jahon klassikasi va milliy adabiyot durdona asarlarini o'qib mutoala qiladigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor | **J.K.Xakberdıev** |
| Reja-moliya bo'limi boshlig'i | **O.U.G'aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

**Biblioman (kitobxon) nominatsiyasi** bo'yicha g'olibni aniqlashda jamoa tartibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalari g'olibi bo'lgan hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan, talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darjada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida sog'lom turmush tarzini targ'iboti bo'yicha ilmiy loyihalar va ma'ruzalar bilan konferentsiya (tanlov)larda ishtirok etib kelayotgan, sport mashg'ulotlari to'garaklarini tashkillashtirish hamda zararli odatlarga qarshi tadbirlarni tashkil qilish va tarqibot qilishda faoliyat yuritayotgan, ratsional ovqatlanish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish to'g'risida takliflari va/yoki ilmiy ishlanmalari nashr qilingan, jamoat ishlari va sport tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Sog'lom turmush tarzi targ'ibotchisi nominatsiyasi** bo'yicha g'olibni aniqlashda jamoa tartibida yoki yakka tartibda ixtiro patenti va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalari g'olibi hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Yosh tadqiqotchi nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etayotgan, keng dunyoqarash va kompyuter hamda IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, ilmiy-innovatsion g'oyalarini targ'ib etuvchi, ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida ilmiy ishlanmalar, startap-loyihalar muallifi bo'lgan, jamoa tartibida yoki yakka tartibda mualliflik guvohnomasi yoki ixtiro patentiga ega bo'lgan, innovatsion yarmarkalar va ko'rgazmalarda o'z tadqiqot loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan, ilmiy-amaliy konferentsiya (tanlov)larda ma'ruzalar bilan qantashib kelayotgan, ilmiy nashrlarda tezis va maqolalar chop etgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 5 (besh) nafar TTAning bakalavriat bosqichi 3-,4-,5- yoki 6-kurs talabalari hamda magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Yosh tadqiqotchi nominatsiyasi** bo'yicha g'olibni aniqlashda respublika va /yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

**Ijodkor nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yo'lida xizmat qilib kelayotgan, o'z mutaxassisligidan tashqari "besh muhim tashabbus" doirasidagi adabiyot, rassomchilik, kompyuter savodxonligi, san'at va teatr sohasidagi ijodi bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etayotgan, ijodiy yo'nalishda alohida iqtidor egasi hamda tashabbuskor bo'lgan, TTAda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlarni OAVlari vaTTA rasmiy veb saytlarida yoritib borayotgan, jamoat ishlari va ijodiy tadbirlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Ijodkor nominatsiyasi** bo'yicha g'olibni aniqlashda respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalar hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Ixtirochi nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 65 ball va undan yuqori bo'lgan, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, vatanparvar, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni hamda O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, muntazam ravishda ilmiy ishlarda ishtirok etayotgan, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligiga ega ixtirolarni ishlab chiqqan va tadbiq etayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida ilmiy ishlanmalar, startap-loyihalar, yakka tartibda mualliflik guvohnomasi yoki ixtiro patentiga ega bo'lgan, innovatsion yarmarkalar va ko'rgazmalarda o'z ixtiro loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan, ilmiy-amaliy konferentsiya (tanlov)larda ma'ruza-dokladlar bilan qantashib kelayotgan, ilmiy nashrlarda tezis va maqolalar chop etgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 5 (besh) nafar TTAning bakalavriat bosiqichi va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning ikki baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Ihtirochi** nominatsiyasi bo'yicha g'olibni aniqlashda respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalar hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**Na'munali sportchi nominatsiyasi** bo'yicha ta'lim bosqichiga o'qishga qirgandan boshlab umumiy reyting nazorati natijalari 60 ball va undan yuqori bo'lgan, vatanparvar, fidoyi, tabiiy yetakchilik qobiliyatini namoyon etgan, yurt kelajagiga daxldorlikni his qiladigan, davlat tilini mukammal darajada va O'zbekiston tarixini yaxshi biladigan, mehnatsevar va boshqa insoniy fazilatlar egasi bo'lgan, Toshkent shahar, respublika va xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallagan, ommaviy sport tadbirlari va to'garaklarini tashkillashtirishda tashabbus ko'rsatayotgan, sog'lom turmush tarzini targ'ib

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo'limi boshlig'i | **O.U.G'aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

qiluvchi, jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini OAVlari va TTA rasmiy veb-saytlarida yoritib borayotgan, turli gazeta va jurnallarda sog'lom turmush tarzi va sport mavzusiga oid maqolalarni chop etayotgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelayotgan 10 (o'n) nafar TTAning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari g'olib deb topiladi va ularga bazaviy stipendiyaning bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**Na'munali sportchi nominatsiyasi** bo'yicha g'olibni aniqlashda respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalar hamda chet (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilini bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarga ustuvorlik beriladi.

**4.** Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi, TTA rektori stipendiyasi va Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar nomzodlari uchun 2-bandda belgilangan talablarga qo'shimcha ravishda o'qiyotgan bakalavriat yoki magistratura ta'lim yo'nalishiga mos mavzuda ilmiy nashrlarda kamida ikkita e'lon qilingan ishlar (maqola, tezis yoki asarlar)ning mavjudligi talab etiladi.

**5.** TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun ushbu Nizomda belgilangan stipendiyadlar va nominatsiyalar miqdorlari hamda g'oliblarining soni har yili TTA Ilmiy kengashining noyabr oyidagi qarori bilan belgilanadi va keyingi yilning xarajatlar smetasiga kiritiladi.

Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar g'oliblarining sonini belgilashda har bir fakultetning 1000 (ming) nafargacha talabasi uchun 1 ta o'rin ajratiladi.

## 2–bob. Tanlovlarni o'tkazish tartibi, stipendiyalar va nominatsiyalar g'oliblarini aniqlash mezonlari

**6.** TTA talabalari o'rtasida Sog'liqni savlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovi har yili 20-30 aprel kunlari o'tkaziladi.

**7.** TTA bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o'rtasida Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar va turli nominatsiyalar tanlovini yuqori saviyada o'tkazish uchun mas'ul etib Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'lari mas'ul hisoblanadi.

**8.** Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalarni tayinlash va turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni aniqlashdan avval talabgorlarning maxsus va umumilmiy tayyorgarlik darajasi hamda ma'lumotlarining belgilangan mezonlarga muvofiqligi puxta ekspertizadan o'tkaziladi.

Shu maqsadda TTAda faoliyat yuritib kelayotgan professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlaridan iborat tarkibda maxsus tanlov komissiyasi tuziladi hamda uning zimmasiga mazkur nizomning 2-bandida ko'rsatilgan stipendiyalar va 3-bandida belgilangan nominatsiyalar bo'yicha talabgorlar orasida saralash tanlovini o'tkazish yuklanadi.

Maxsus tanlov komissiyasi tarkibi TTA Rektori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

**9.** Maxsus tanlov komissiyasi o'z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik va betaraflik tamoiyllari asosida amalga oshiradi.

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar talabgorlarning ilmiy ishlari, erishgan yutuqlari hamda o‘tkazilgan test sinovlari natijalariga ko‘ra maxsus tanlov komissiyasi qaroriga asosan aniqlanadi.

Maxsus tanlov komissiyasi talabgorlarning yakuniy tanlovini yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazadi va agar har bir ishga ovoz berishda qatnashgan komissiya a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ma’qullab ovoz bersa nomzod Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalardan birini tayinlash hamda turli nominatsiyalar bo‘yicha bir martalik rag‘batlantirish uchun tavsiya qiladi.

Ovoz berishdan so‘ng talabgorlar soni belgilangan o‘rinlar kvotasidan ko‘p bo‘lgan taqdirda ustunlik eng ko‘p ovoz olgan talabgorlarga beriladi.

**10.** Maxsus tanlov komissiyasi qabul qilgan qaroriga asosan Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar g‘olibi bo‘lgan talabalar ro‘yxati TTA Rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

**11.** Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nomnatsiyalarga talabgor bo‘lgan talabalarning o‘quv va ilmiy faoliyati TTA rasmiy veb-saytida ommaviy muhokama qilish uchun joylanadi.

Maxsus tanlov komissiyasi g‘oliblarni belgilash bo‘yicha qaror qabul qilishda talabgor to‘g‘risida TTA rasmiy veb-saytida berilgan taklif va mulohazalarni ko‘rib chiqadi.

**12.** Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalarga talabgorlar ko‘rib chiqish uchun masxus tanlov komissiyasiga quyidagilarni taqdim qiladilar:

– sinov daftarchasidan dekanat tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma;

– dekanat va kafedraning tavsiyanomasi;

– Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tavsiyanomasi;

– ilmiy (ijodiy) ish rahbarining tavsiyanomasi;

– ilmiy ishlar (monografiya, informatsion referat, uslubiy ishlanmalar, tavsiyalar, tezislar, ilmiy maqolalar va h.k.) ro‘yxati va ularning bosma nusxalari;

– O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi, Ijtimoiy fanlar kafedrasining suhbat natijalari haqidagi ma’lumotnomalar;

– yo‘nalishlar bo‘yicha konferentsiya va/yoki tanlovlarda qantashganligi haqidagi faxriy yorliqlar va diplomlarning dekanat tomonidan tasdiqlangan nusxalari;

– respublika va/yoki xalqaro loyihalar va dasturlardagi ishtiroki to‘g‘risidagi dekanat tomonidan tasdiqlangan ma’lumotlar (nomi, ishtirok etish darajasi ko‘rsatiladi);

– chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatning dekanat tomonidan tasdiqlangan nusxalari;

– respublika va/yoki xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlarning dekanat tomonidan tasdiqlangan nusxalar;

– respublika va/yoki xalqaro sport musoboqalarida g‘olib bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlarining dekanat tomonidan tasdiqlangan nusxalari.

Zaruratdan kelib chiqib maxsus komissiya tomonidan talabgordan taqdim qilingan hujjat nusxalarining asli so‘ralishi mumkin.

Barcha hujjatlar ro‘yxat tartibida jildga (papkaga) joylangan holda tanlov o‘tkazilishi e’lon qilingan sanadan boshlab 5 kun muddat ichida tanlovda ishtirok etish to‘g‘risidagi ariza bilan Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, maxsus tanlov komissiyasi mas’ul kotibiga taqdim etiladi. Muqovada Sog‘liqni saqlash vaziri yoki nomli stipendiyaning nomi yohud nomnatsiyaning turi,

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, fakulteti, bakalavriat yoki magistratura ta'lim yo'nalishi, kursi, guruhi ko'rsatiladi.

Talabgor tomonidan taqdim qilingan hujjatlar yig'ma jildiga qayta boshqa hujjatlarni kiritish qat'iyan man qilinadi.

**13.** Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsilarga talabgorlar chet tillari, axborot texnologiyalari va O'zbekiston tarixi bo'yicha bilim darajasini aniqlash uchun TTA test markazida maxsus test sinovlari topshiradilar.

Test sinovlari formati: "chet tili", "axborot texnologiyalari" va "O'zbekiston tarixi" bo'limlarining har biri 25 ta savoldan iborat 10 ta variantda bo'ladi.

Har bir test savolga – 2 ball belgilanadi.

**14.** TTA talabalari orasida Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar tanlovida mazkur Nizomning 2- va 3-bandlarida belgilangan tartibda fanlardan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan, TTAning ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy ishlarida faol qatnashayotgan bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari ishtirok etishi mumkin.

Binobarin TTA talabalari orasida Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar uchun nomzod talabalar:

– a'lo va yaxshi baholarga o'qishi;
– ilmiy-tadqiqot ishlarda faol ishtirok etishi;
– zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;
– o'z mutaxassisligi bo'yicha zarur bilimga ega bo'lishi;
– ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy va ijodiy ishlarda faol ishtirok etishi;
– davlat tilini mukammal darajada va ikkita chet tillarini (rus va boshqa tillarini) yaxshi bilishi;
– sport tadbirlarida faol ishtirok etishi asosiy mezonlar etib belgilanadi.

**15.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va boshqa nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari mazkur nizomda belgilangan TTA talabalari o'rtasida o'tkaziladigan Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar tanlovida talabgor sifatida ishtirok etmaydi. (bakalavriat bosiqichida tahsil olayotganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va boshqa nomli davlat stipendiyalari sovrindori bo'lgan va tanlov o'tkazilayotgan paytda magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar bundan mustasno).

## 3-bob. Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalarni tayinlash

**16.** Mazkur Nizomning 2-bandida ko'rsatilgan stipendiyalar TTA Rektori buyrug'iga asosan TTA Ilmiy kengashining qarori bilan belgilangan miqdorlarga tayinlanadi va to'lanadi.

**17.** Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi, TTA rektori stipendiyasi va Atoqli olimlar nomidagi stipendiyalar g'olibi bo'lgan talabalarga har yili, bir o'quv yili uchun, 1-sentyabrdan boshlab, Nizomning 2-bandida belgilangan miqdorlarga qat'iy rioya qilingan holda tayinlanadi va to'lanadi.

**18.** Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar tanlovlarida g'olib bo'lgan talabalarga TTA tomonidan tasdiqlangan quyidagi guvohnomalardan biri beriladi:

– "Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi sohibi";
– "Rektor stipendiyasi ning sovrindori sohibi";
– "Akademik Vasit Vaxidovich Vaxidov nomidagi stipendiya sohibi";
– "Akademik Uktam Aripovich Aripov nomidagi stipendiya sohibi";

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo'limi boshlig'i | **O.U.G'aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

– "Akademik Nabi Majidovich Majidov nomidagi stipendiya sohibi";
– "Akademik Komiljon Ahmadjonovich Zufarov nomidagi stipendiya sohibi";
– "Akademik Malika Samatovna Abdullaxo'jaeva nomidagi stipendiya sohibi";
– "Akademik Turg'unpo'lat Obidovich Daminov nomidagi stipendiya sohibi".
Stipendiatlarga guvohnomalar tantanali vaziyatda topshiriladi.

## 4-bob. Turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni rag'batlantirish va taqdirlash

**19.** Mazkur Nizomning 3-bandida ko'rsatilgan nominatsiyalar g'oliblariga TTA Rektori buyrug'iga asosan TTA Ilmiy kengashining qarori bilan belgilangan miqdorda bir martalik rag'batlantirish to'lovi tayinlanadi.

**20.** Nominatsiyalar bo'yicha holib bo'lgan talabalarga TTA tomonidan tasdiqlangan quyidagi guvohnomalardan biri beriladi:
– "Erudit (bilimdon) nominatsiyasi g'olibi";
– "Poliglot (ko'p til biluvchi) nominatsiyasi g'olibi";
– "Biblioman (kitobxon) nominatsiyasi g'olibi";
– "Sog'lom turmush targ'ibotchisi nominatsiyasi g'olibi ";
– "Yosh tadqiqotchi nominatsiyasi g'olibi";
– "Ijodkor stipendiyasining nominatsiyasi g'olibi";
– "Ixtirochi stipendiyasining nominatsiyasi g'olibi";
– "Na'munali sportchi nominatsiyasi g'olibi".

G'oliblarga guvohnomalar mazkur nominatsiya uchun beriladigan to'lov bilan birgalikda tantanali vaziyatda topshiriladi.

## 5-bob. Yakunlovchi qoidalar

**21.** Talabalarni kundalik darslarni o'zlashtirmaganlik, o'quv intizomini va TTAda o'rnatilgan odob-axloqni buzganlik uchun o'quv yili mobaynida Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalardan mahrum qilish fakultet dekani taqdimnomasi yoki Odob-axloq komissiyasi qarorlariga binoan TTA Rektori buyruqi bilan amalga oshirilishi mumkin.

**22.** Talabalarning Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalarni tayinlash hamda turli nominatsiyalar bo'yicha ishtirok etish to'g'risidagi ariza va shikoyatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

**23.** Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan xodimlar TTA Ichki tartib qoidalariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

Toshkent tibbiyot akademiyasining
2022-yil “ 4 ”-aprel dagi
№ 106 -sonli burug‘iga 2-*ilova*

**2021/2022 o‘quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari uchun Sog‘liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsilar bo‘yicha to‘lov miqdorlari va ular tayinlanadigan g‘oliblarning soni**

| T/r | Stipendiya va nominatsiyalarning nomi | Stipendia va nominatsiyalar g‘oliblari soni | Stipendiya va nominatsiyalar miqdori (bir oyda, so‘m) |
|---|---|---|---|
| 1. | Sog‘liqni saqlash vaziri stipendiyasi | 2 | 1 553 640 |
| 2. | Toshkent tibbiyot akademiyasi Rektori stipendiyasi | 2 | 1 294 700 |
| 3. | Akademik Vosit Voxidovich Voxidov nomidagi stipendiyasi | 11 | 776 860 |
| 4. | Akademik Uktam Aripovich Aripov nomidagi stipendiya | 11 | 776 860 |
| 5. | Akademik Nabi Majidovich Majidov nomidagi stipendiya nevroptolog | 11 | 776 860 |
| 6. | Akademik Komiljon Ahmadjonovich Zufarov nomidagi stipendiya | 11 | 776 860 |
| 7. | Akademik Malika Samatovna Abdullaxo‘jaeva nomidagi stipendiya | 11 | 776 860 |
| 8. | Akademik Turg‘unpo‘lat Obidovich Daminov nomidagi stipendiya | 11 | 776 860 |
| 9. | Erudit (bilmidon) nominatsiyasi | 10 | 1 035 760 |
| 10. | Poliglot (ko‘p til biluvchi) nominatsiyasi | 10 | 1 035 760 |
| 11. | Biblioman ( kitobxon) nominatsiyasi | 5 | 517 880 |
| 12. | Sog‘lom turmush targ‘ibotchisi nominatsiyasi | 10 | 517 880 |
| 13. | Yosh tadqiqotchi nominatsiyasi | 5 | 1 035 760 |
| 14. | Ijodkor nominatsiyasi | 5 | 517 880 |
| 15. | Ihtirochi nominatsiyasi | 5 | 1 035 760 |
| 16. | Na’munali sportchi nominatsiyasi | 10 | 517 880 |

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo'limi boshlig'i | **O.U.G'aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

Toshkent tibbiyot akademiyasining
2022-yil "4"-aprel dagi
№ 106 -sonli burug'iga 3-*ilova*

**Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari orasidan Sog'liqni saqlash vaziri va nomli stipendiyalar hamda turli nominatsiyalar g'oliblarini aniqlash bo'yicha maxsus tanlov komissiyasi**
**TARKIBI**

| № | F.I.O. | Lavozimi | Maxsus tanlov komissiyasidagi o'rni |
|---|---|---|---|
| 1 | Turdiqul Akramovich Bobomuratov | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | Komissiya raisi |
| 2 | Feruza Lutpillayevna Azizova | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | Rais o'rinbosari |
| 3 | Shuxrat Abdujalilovich Boymuradov | O'quv ishlari bo'yicha prorektor | Komissiya a'zosi |
| 4 | Jaxongir Karimovich Xakberdiev | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | Komissiya a'zosi |
| 5 | Ma'rif Shakirovich Karimov | Davolash ishlari bo'yicha prorektor | Komissiya a'zosi |
| 6 | Guli Aminjanovna Ismailova | Ilmiy Kengash kotibi | Komissiya a'zosi |
| 7 | Barno Turdixodjaevna Xolmatova | 1 - son davolash fakulteti dekani | Komissiya a'zosi |
| 8 | Umidjan Ergashevich Eraliev | 2-son davolash fakulteti dekani | Komissiya a'zosi |
| 9 | Abror Asrorovich Hamraev | Tibbiy pedagogika va xalq tabobati fakulteti dekani | Komissiya a'zosi |
| 10 | Feruza Ibodullaevna Salomova | Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekani | Komissiya a'zosi |
| 11. | Sarvar Ubaydullaevich Aliev | Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani | Komissiya a'zosi |
| 12 | Feruza Xusanovna Azizova | O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i | Komissiya a'zosi |
| 13 | Davlatboy Arabbaevich Akromov | Ilmiy-tadqiqot sektori boshlig'i, Kasaba uyushmasi a'zosi | Komissiya a'zosi |
| 14 | Abduraxmon Abudganievich Imamov | Magistratura bo'limi boshlig'i | Komissiya a'zosi |
| 15 | Mashxura Abduvalievna Xasanova | Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i | Komissiya a'zosi |
| 16 | Feruza Baxtiyarovna Abdumalikova | Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | Mas'ul kotib |

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O'quv ishlari bo'yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo'limi boshlig'i | **O.U.G'aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 17 | Abrorjon Kamoliddinovich Musaxanov | Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i | Komissiya a'zosi |
| 18 | Alisher Oripovich Oxunov | 1-son Umumiy va bolalar xirurgiya kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 19 | Murod Shavkatovich Xakimov | 1-son fakultet va gospital xirurgiya kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 20 | Djaxangir Xusanovich Tursunov | Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 21 | Raximbaeva Gulnara Sattarovna | Nevrologiva va tibbiy psixologiya kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 22 | Roza Nosirovna Melibaeva | Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 23 | Xasan Ziyaevich Tursunov | Patologik anatomiya kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 24 | Malohat Ergashevna Axmedova | O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 25 | Suxrob Dusmuratovich Norqulov | Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 26 | Feruza Shamansurovna Tuxtaxodjaeva | Jismoniy yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi nazoratchisi | Komissiya a'zosi |
| 27 | Jasur Mirxamidovich Umarov | TTA Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti y e takchisi | Komissiya a'zosi |
| 28 | Shuxrat Farxadovich Ermatov | "Shifokor". Sport majmuasi bo'limi mudiri | Komissiya a'zosi |
| 29 | Xabiba Botirovna Nurbaeva | Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi uslubchisi | kotib |

**Kiritildi:**

| | |
|---|---|
| Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i | **F.B.Abdumalikova** |

**Kelishildi:**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | **Sh.A.Boymuradov** |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | **F.L.Azizova** |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | **T.A.Bobomuratov** |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor | **J.K.Xakberdiev** |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | **O.U.G‘aipov** |
| Bosh buxgalter | **A.Sh.Yulchiev** |
| Yuriskonsult | **B.N.Shukurov** |